



## ISTE'MOL BOZORI


(dastlabki ma'lumot)

2018 yil yanvar-aprel

Chakana savdo tovar aylanmasi (ovqatlanish korxonalarini qo'shgan holda) 2018 yilning yanvar-aprel oylarida 1468,1 mlrd.so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,9 foizga oshdi.


Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 18,7 foizni tashkil etdi. Yirik korxonalarining o'sish sur'atini o'tgan yilning shu davriga nisbatan 37,2 foizga ko'payishiga olib keldi.

### ***Xorazm viloyati shahar va tumanlar kesimida 2018 yil yanvar-aprel oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'atlari***



Chakana savdo tovar aylanmasi (umumovqatlanish korxonalarini qo'shmaganda) hajmida katta ulushga ega bo'lgan Urganch shahri (36,6 foiz), Xazorasp tumani (13,8 foiz), Urganch tumani (8,3 foiz) ni tashkil qilib chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

### Hududlar kesimida jami chakana savdo tovar aylanmasining ulushi, foizda



Ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga o'tgan yilga nisbatan 101,3 foizni tashkil qilib, 812,2 ming. so'mni tashkil etdi (2017 yil yanvar-aprel oyida 651,4 ming. so'mni tashkil qilgan edi).

O'rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Urganch shahri (3831,8 ming. so'm), Xazorasp tumani (842,7 ming. so'm) va Gurlan tumanida (791,5 ming. so'm) kuzatildi.

Ovqatlanish tashkilotlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 23,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 16,2 foizga oshdi. Chakana savdo tovar aylanmasining umumiy hajmida ovqatlanish korxonalarining ulushi 1,6 foizni tashkil etdi.

### Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi


Shahar va tumanlar	Ming. so'm	o'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda
Urganch shahar	3831,8	114,9
Xiva shahar	596,2	103,8
Bog'ot tuman	407,5	92,8
Gurlan tuman	791,5	98,5
Qo'shko'pir tuman	355,9	96,5
Urganch tuman	636,7	87,5
Xazorasp tuman	842,7	96,8
Xonqa tuman	476,9	92,5
Xiva tuman	206,3	92,3
Shovot tuman	499,7	99,0
Yangiariq tuman	700,9	98,4
Yangibozor tuman	496,4	89,1

## O'TGAN DAVRLARDA KICHIK TADBIRKORLIKNING CHAKANA SAVDODAGI ULUSHI

Kichik tadbirkorlikning tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 96,8 foizni tashkil qiladi.

Umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 71,9 foizini tashkil qiladi.

Kichik tadbirkorlik umumiy tovar aylanmasining deyarli 138,2 mlrd. so'mi uyushmagan savdo hisobiga to'g'ri keldi. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 9,4 foizni tashkil etadi.



Xorazm viloyati statistika boshqarmasi Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish, tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: B. Tillayev  
(0371) 230-87-66